

## KONIMEX TUMANI QISHLOQLARI TOPONIMLARI

**Negmatov S.Q.**

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari  
kafedrasini o'qituvchisi

**Quralbayeva A.N.**

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Geografiya o'qitish metodikasi  
ta'limiy o'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** *Hammamizga ma'lum bizning davlatimiz ko'p millatli. Yurtimizda har xil millat vakillari tinch, ahil bo'lib yashaydi. Navoiy viloyatiga qarashli Konimex, Tomdi tumanlarining ko'pchilik qismini qozoq millati tashkil etadi. Ular azal-azaldan bu hududlarda yashab, chorvachilik bilan shug'illanib kelishadilar. Ular yashaydigan hududlarning joy nomlari ham o'z ona tillaridan, milliy tarixidan kelib chiqqan.*

**Kalit so'zlar:** *Konimex tumani, Konimehr, Teri-quduq, Uchtepa, Besquduq, Do'ngalak, Sarjal, Yangiqazg'an, O'razjon, Baymurat, Qaroq ota, Madaniyat, Zafarobod.*

## TOPONYMS OF VILLAGES OF KONIMEX DISTRICT

**Negmatov S.Q.**

Navoi State Pedagogical Institute  
Basics of geography and economics  
teacher of the department

**Quralbayeva A.N.**

Navoi State Pedagogical Institute  
Methods of teaching geography  
student of educational direction

**Annotation:** *We all know that our country is multi-ethnic. Representatives of different nationalities live in peace and harmony in our country. The majority of Konimex and Tomdi districts of Navoi region are Kazakh. They have long lived in these areas and are engaged in animal husbandry. The names of the places where they live are also derived from their native languages and national history.*

**Keywords:** *Konimex district, Kanimehr, Teri-kuduk, Uchtepa, Beskuduk, Dongalak, Sarjal, Yangiqazgan, Urazjan, Baymurat, Qaraq ata, Madaniyat, Zafarabad.*

Toponimika yunoncha “topos-joy, onomono-ism, nom” joy nomlari geografik atoqli nomlarni, ularning paydo bo`lish yoki yaratilish qonunyatlarini, rivojlanish va o`zgarishini, tarixiy etimologik manbalarni va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o`rganadi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui-toponimiya alohida olingan joy nomi esatoponim deb ataladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti, relyefi, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg`uloti, qazilma boyliklar tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi. Toponimlarning kelib chiqishi geografiya, tarix, etnologiya bilan bog`liq holda rivojlanadi. Toponimlar xalqlarning tarixiy o`tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashtirish chegaralarini belgilashga, tillarning o`tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo`llarini tavsiflashga yordam beradi<sup>1</sup>.

Bizning yurtimizda ham 12 viloytimiz bo`lib, ularning joy-nomlari ham o`ziga xos har xil tarixga ega. Ularning ba`zilari masalan, Navoiy, Buxoro, Samarqand va shu kabilar buyuk ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz nomiga qo`yilgan.

Quyida Konimex tumanidagi ba`zi bir qiziqarli bo`lgan toponimlarni va ularning tarixini ko`rib chiqamiz.

**Konimex tumani.** Tuman nomining kelib chiqishi haqida bir nechta rivoyatlar mavjud. Eron podshohining og`li Shopur Turan shu o`lkada yashagan Mehribonuning go`zalligiga oshiq bo`ladi va sevgilisiga uylanadi. Sevgilisi hurmatiga Zarafshon daryosidan suv yo`li kanal qozdirib unga Konimehr deb nom beradi. Asrlar davomida Konimehr o`zgarishlarga uchrab Konimex deb atalib ketgan degan rivoyat bor. Ikkinchi rivoyatda Meh Ota koni degan ma`noni beradi. “Kon” so`zi fors tilida “Daryo tarmog`i yoki anhor va suv yo`li ariq” degan ma`noga ega. Shu sabab Konimex deb atalgan deyiladi.

Uchinchi rivoyatda “Konimex” atamasi tilshunoslik jihatdan tahlil qilinsa “Kon” va “Meh” kabi ikki so`zdan kelib chiqqan atama. Atamaning birinchi bo`g`inidagi “Kon”so`zi arna daryo tarmog`i yoki anhor ma`nolarini anglatgan. Ikkinchi bog`inidagi “Meh” birikmasi aslida “moh”, ‘mug” so`zlarini shakli bo`lib, u “otashparast, budparast, o`tparast zardushtiy” ma`nosini anglatgan.

Keltirilgan tahlillarga asoslanadigan bo`lsak, “Konimex” atamasi “Mugdaryo” Zardushtiy arnosini, otashparastlar anhorini “dean ma`nolarni anglatadi. Xulosa qilib aytganda, tarix

---

<sup>1</sup>J. Mustafayev, U. Narzullayev, L. Berdimuratova, Z. Safarov, “Konimex tumani Kecha va bugun”- T; SAHHOF 2021.-368-b.

fanining darg'alari tomonidan berilgan yakuniy xulosa-"Konimex" so'zidagi "kon", "kom" so'zi qadimda "katta ariq", "daryo tarmog'i yoki anhor" ma'nosida, ya'ni mazkur qishloqda "mug'" nomi bilan tilga olingan zardushtiylar diniga sig'ingan kishilar yashganligini bildiradi. XX asrning 20-yillariiga qadar Komi mug` deb nomlangan bu hudud sovet tuzumi o'rnatilishi bilan avval hujjatlarda so'ngra mahalliy tilda "Konimex" atamasi bilan nomlanib ketgan.

**Teri-quduq**<sup>2</sup> qishlog'i- bu qishloq nomining kelib chiqishi albatta, shu qishloqda yashaydigan aholisigagina ma'lum. Bu yerda yashaydigan aholining aytilishlaricha, qozoq tilidan tarjima qilganda, qadimda qishloq atrofida bir quduqdan qo'y terisi topilgan ekan. Yuqorida aytib o'tkanimizdek bu yerdagi qozoqlar chorvachilik ya'ni qo'y va echki boqish bilan shug'ullanishadi. Bu qishloqning nomi nimaga Teri-quduq deb qo'yilgan deb savol berganimizda, teri topilganligi uchun deb javob berishdi. Ba'zi bir qishloq odamlarining aytishlariga qaraganda bu nomning qo'yilishiga qishloq yaqinida chuqur quduq bo'lgan ekan, ular shu sabab deyishadi.

**Uchtepa** qishlog'i. Ovul fuqoralar yig'ini 1997 yil 8 iyulda tashkil topgan. Bu qishloq ham qozoqlar yashashadi va aholisi boshqa qishloqlarga qaraganda nisbatan ko'proq. Bu yerdagi aholi qishloq atrofida uchta tepalik bo'lgan shuning uchun shunday nom bilan atab ketishgan deyishdi. Bu yerlarning tuproqlari shag'al qumlar, tepalik va barxanlar ko'p. Shunday qilib uchta katta tepaliklarning uchrab turishi tabiiy hol.

**Besquduq** qishlog'i- bu qishloq nomining kelib chiqishi, qadimda ba'liki bu yerda quduq bo'lmagandir, ba'liki uzoqda bo'lgandir, yozning jazirama issig'ida beshta qiz suv izlab kelishgan va suvsizlikdan chanqab xalok bo'lishgan. Shuning uchun bu qishloqni Besquduq ya'ni beshta qiz quduq izlagan deb atashar ekan.

**Do'ngalak** qishlog'i bu so'z qozoq tilidan tarjima qilganda yumaloq degan ma'noni anglatadi. Bu qishloq nomining kelib chiqish tarixi shunday ekan, tepalikka chiqib bu qishloqqa qaralsa, huddu yumaloqday bo'lib, ko'rinar ekan. Shu sababli ko'rinishiga qarab Do'ngalak deb nom berishgan.

**Sarjal** ovuli. Ovul 1994 yil dekabrda Konimex tumani qarori bilan tashkil etilgan. Bu qishloq nomining kelib chiqishi tog'risida ikki xil qarashlar mavjud. Ulardan biri qishloqdan salgina uzoqda bo'lgan tepalik bo'lgan ekan. Jal so'zini qozoqchadan tarjima qilganda

<sup>2</sup> J. Mustafayev, U. Narzullayev, L. Berdimuratova, Z. Safarov, "Konimex tumani Kecha va bugun"- T; SAHHOF 2021.-371-b.

tepalik degan ma'noni bildiradi. O'sha tepalik uzoqdan sariq bo'lib ko'ringan shunga Sarijal deb atalgan deyiladi. Ikkinchisida esa sariq yolli ot ya'ni yilqi shu qishloqqa kelgan. U ot juda o'zgacha bo'lib hammani o'ziga jalb qila olgan, birinchi bo'lib otning yoli ko'zga tashlanadigan bo'lgan. Shuning uchun ham odamlar bu qishloqqa Sarjal deb ya'ni sariq yolli ot uchun shunday nomlashgan.

**Yangiqazg'on** ovuli 1992 yil tashkil topgan. Bu qishloqning kelib chiqish tarixi juda ajoyib va g'ayrioddiy ekan. Qishloqning atrofida qazilgan bir o'rani ko'rishgan va odamlar bu yangidan qazilgan ku deyishgan. Shu bilan bu qishloq nomi yangidan qazilgan deb Yangiqazg'on atalgan.

**O'razjon**<sup>3</sup> qishlog'I bu qishloqning ham o'ziga yarasha tarixi mavjud. Dastavval bu yerlarda hechkim yashamaydigan paytlari O'razjon degan kishi birinchi bo'lib ko'chib kelgan. O'z oilasi bilan yashab bu yerda ekinchilik bilan shug'illanib qovun ekishgan. Shundan keyin bu yerga boshqa aholi ham ko'chib kela boshlagan. Bu yerdagi aholi soni ko'payib butun bir qishloqqa aylangan. Hozirda birinchi ko'chib kelgan odamning avlodlari hozirgacha yashab kelmoqda. U kishining hurmatiga qishloqni O'razjon deb nomlashgan.

**Baymurat.** "Baymurat" ovuli fuqoralar yig'ini 1997 yil 8 iyulda tashkil etilgan. Ovulning bunday nom bilan atalish sababi ushbu hududda yashayotgan oqsoqollarning aytishicha, Qizilqum cho'lida yashagan asli qozoqlarning bojbon urig'idan chiqqan Baymurat botir ismli kishi bo'lib, u hududni tashqi dushmanlardan, bosqinchilardan himoya qilib turgan va uning ismi keyinchalik toponim sifatida xalq tilida qolgan. Ovul fuqoralaryig'ini tarkibiga "Eltoy", "Qalmurat", hamda Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh "Qosquduq" va "Yangi turmush" ovullari ham kiradi. Mazkur ovul aholisi ko'p millatli bo'lib, ularda o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, tatar millatiga mansub 2800 nafardan ziyod fuqoralar o'zaro totuvlikda yashaydilar.

**Qaroq ota**<sup>4</sup>. Qaroq ota ovul fuqoralar yig'ini 1997 yilda tashkil etilgan. Ovul fuqoralar yig'inining nomi Yassaviya tariqatining mashhur namayondasi, donishmand, orif, sohib karomat Qaroq-ota nomi bilan bog'liq. Qaroq ota ovul fuqoralar yig'inining hududi 392,086 gektarni tashkil etib, Qaroq ota, Parloq, Shontibay, Nurbuloq, Aksay, Madaniyat, Shengeldi,

<sup>3</sup> Eshonqulov H., "Qizilqum alplari". – T; "Sharq" 2004.-B-20.

<sup>4</sup> Серік Шүқын "Құт дарыған Қылыққұм". Т;- "Абдулла Қадыри атындағы халық мұрасы" баспасы. 2004.-Б-113.

Balaqaraq kabi ovullardan iborat. Qaroq ota ovulida yashovchi aholi asosan chorvachilik bilan shug`illanadi.

**Madaniyat.** Madaniyat ovuli hududida joylashgan Aristontov yuzlab yillar mobaynida bugingi konimexliklarning qadim ajdodlarga zamin bo`lgan maskan sanaladi. Tog` bag`rida joylashgan qariyib 2-3 gektar maydonni egallagan qadimiy qabriston bu yerda uzoq davrlar mobaynida insonlar yashagnini isbotlaydi. Shuningdek qabr toshlaridagi yozuvlar ham bunga dalil sanaladi. Sababi ayrim ko`xna toshlarda arabiy imloda o`yib yozilgan bitiklrga ko`zingiz tushadi.

Bugingi kunda “Madaniyat” ovulida yashovchi eng keksa kishi 75 yoshli muallim Asubay bobo Aristontovda tug`ilgan kishilardan. Otaxonning aytishicha, Aristantovga XVI-XVII asrlarda bugingi Qozog`iston hududidan odamlar ko`chib kelgan. Tog` nomi ham bu yerga ilk bor ko`chib kelgan. Tog` nomi ham bu yerga ilk bor ko`chib kelgan kishi nomi bilan bog`liq. Bugingi kunda konimexliklar saxovatli kishilarni “Taeliboy” deb atashadi. “Tog`” eli “boy”, degan jumla esa aynan Aristontovda yashagan boy chorvador aholi faolyatidan kelib chiqqan, degan fikirlar bor.

**Zafarobod<sup>5</sup>.** Zafarobod mahalla fuqoralar yig`ini 1972 yil tashkil topgan bo`lib, mahallada 18 millat vakillari ahil inoqlikda yashaydi. Mahallaning “Zafarobod” deb nomlanishi “Zafar” va “G`alaba” degan ma'nolardan kelib chiqib qo`yilgan. Hozirda hududda 5 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. J. Mustafaoev, U. Narzullayev, L. Berdimuratova, Z. Safarov, “ Konimex tumani Kecha va bugun”- T; SAHHOF 2021.
2. Серік Шұқын, Құлмахан Қали, Кенимех нұр өлкем. Т; “ Turon- Iqbol”. 2005- Б-24.
3. Eshonqulov Н,” Qizilqum alplari”. – Т; “Sharq” 2004.-Б-20.
4. Серік Шұқын “Құт дарыған Қылылқұм”. Т;- “Абдулла Қадыри атындағы халық мұрасы” баспасы. 2004.-Б-113.
5. Нарбай Тоғайұлы Қожахмет немересі Кенимех және менің кейіпкерлерім. Жетінші кітап, Шымкент; 2019, -Б. 100

<sup>5</sup> Серік Шұқын, Құлмахан Қали, Кенимех нұр өлкем. Т; “ Turon- Iqbol”. 2005- Б-24.